

ZULFIYAXONIM IJODIDA KOMILLIK

Aminova Gulsanem Ahmed qizi

O'qish joyi: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti

Tel:+998 90 595 17 18E-mail: g28292422@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sevimli shoiramiz Zulfiyaxonim Isroilovanning "Xotiram Siniqlari" dostoni, she'riy satrlarida o'z davri butun xalqining qiyinchiliklari, azob-uqubati, eng yaqin insonlarining qalb tug'yonlari aks etgan.

Kalit so'zlar: Hayot, shoira, muhabbat va sadoqat, vafo, yaxshilik, she'riy satrlar, kuchli iroda, hurriyat, vaqt.

Аннотация: В этой статье Эпопея нашей любимой поэтессы Зульфийахоним Исраиловой "Надлом памяти", в поэтических строках которой отразились беды, страдания целого народа его времени, бунт души самых близких людей.

Ключевые слова: Жизнь, поэтесса, любовь и верность, верность, доброта, поэтические строки, сильная воля, свобода, время.

Abstract: In this article, the Epic of our beloved poetess Zulfiyaxonim Israilova "The fracture of memory", in the poetic lines of which the troubles, sufferings of the whole people of his time, the rebellion of the soul of the closest people were reflected.

Keywords: Life, poetess, love and loyalty, loyalty, kindness, poetic lines, Strong will, Freedom, time.

Hayot. Hayot shunday ekan, gohida yaxshilik va go'zalliklarga, gohida esa yomonlik, yovuzliklarga to'la. Muhimi esa, har qanday vaziyatni pok qalb, toza iymon bilan yenga olish. Kun kelib, albatta qora tun ortidan, yorug' kunlar kelishiga ishonish, yaqinlarimiz, qadrdonlarimiz uchun mehr-muhabbatimiz, sevgi-sadoqatimizni baxshida etishdir. Shunday hayot va ijod yo'llarini bosib o'tgan va o'zidan ulkan adabiy meros qoldirgan, "vafo va sadoqat" timsoli Zulfiyaxonim Isroilovadir.

Atoqli va ardoqli shoiramiz Zulfiyaxonim Isroilova qalbimiz, yuragimizning tub-tubidan joy olgan. Har bir she'riy satri har bir ko'ngilda o'z o'rniga ega. Birinchi Prezidentimiz, Islom Karimov ta'riflashicha, "Uning jahon minbarlarida yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakovati, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan". Darhaqiqat, Zulfiyaxonimning ijodiy umr yo'llari, balki hayot yo'llari ham biz uchun saboq hamda chinakam sadoqat va vafo tuyg'ularining haqiqiy isbotidir. Shoiraning she'r-u-dostonlarini o'qir ekanmiz, she'riy satrlar bizlarni nafosatga, ezgulikka oshno etib, oppoq tong sari yetaklab, qalb harorati bilan isitib kelmoqda.

Hurriyat, keldingmi - nahotki kelding,

Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.

Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek

Sening nasimingga qalbimni tutdim.

Ko'p hollarda she'r o'qiganimizda, yakunida bir xulosaga kelamiz, lekin Zulfiyaxonimning har satri haqiqiy xulosa chiqarish uchun yetarlidir. "Xotiram siniqlari" she'riy dostonida odamiylik, komillik sadoqat, vafoni komillikning bosh mezoni darajasiga ko'targan. Shoiri hurriyat kelishini pinhon sog'inib kutganligini, jazirama cho'l, sahro bag'rini yomg'irga tutishiga o'xshatgan. O'ylab ko'rsak sahraning boshi yoki oxiri bormi, lekin u butun bag'ri, borlig'i bilan yomg'irga tutmoqda. Ijodkor ham hurriyatning nasimiga butun qalbini tutyapti. Juda go'zal o'xshatish. U o'zining xotirasi, yodi siniqlarini dengiz mavjlari kabi qalqitib, yuragini esa bundan ogohlantirib, "chida, ber bardosh" deb o'tadi. O'sha davrlardagi onasining mehrini, barcha ishlarini tashlab, So'fi Olloyor, Mashrab mumtoz nazmlaridan nim-nim bazmlarini, otasining ta'biricha "boychechak" ekanligi, akasining kuchli kelbatli, sultonlikka loyqligini eslab, ota-onasining kuchli iroda va matonat egasi bo'lganligini, asl yigitlar Sibir o'rmonlarida qirilganini ko'rib, otasiga hatto yoviga tosh otmaganini "soldim Xudoga" so'zlari bilan kifoya qilgan xotira siniqlarini badiiy mahorat bilan ifoda etgan.

1944-yil shoiri turmush o'rtog'i Hamid Olimjondan ayriladi. Bu vaqtda o'ttizga ham to'lmagan edi, Zulfiyaxonim ayriliq alami, hijron azobidan qiynalgan vaqtda ham she'rlari unga hamdard bo'ldi. Quyidagi satrlarda:

Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,

Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.

Yoziqni devorga urdim-u biroq

Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi.

Zulfiya irodasi kuchli, vafodorlik hissi uni satrlarida ham sezilib turadi. Ayni o'sha vaqtlarda urush vaqtiga to'g'ri kelib, butun xalq ancha qiyinchilik, azob-uqubat ko'rishgan, yurt hokimlari siyosatlarini bu davrdagi aholi orasida "yangi hayot" deb o'ylashlari, "vatanparvar" kabi o'zlarini his qilishlari yuqori iste'dod bilan aks ettirilgan. Istiqbol, Istiqbol, Hurriyat kelganini bilib, qalbi, so'zi, ko'zi bilan bag'riga bosishini va albatta jon Vatanimizda abadiy qolishini, elyurt taqdirida mangu Hurriyat bo'lishini go'zal satrlar ila tasvirlab bergan.

"Xotiram siniqlari" bu she'riy dostonida faqat Zulfiyaxonim ijodidagi xotira siniqlari bo'lib tasvirlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib, bu xalqimizning xotirasiga komillikning asosiga aylandi.

"Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,

Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim..."

degan edi, Zulfiyaxonimning bu satrlari o'z isbotini topdi. Zulfiya ijod va umr yo'llari biz uchun hayot maktabi bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Zulfiyaxonim. Saylanma – 2011y.
2. Saodat jurnali.
3. "Bahor keldi seni so'roqlab" she'riy to'plami.
4. "Adabiyot ziyosill gazetasi"